

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.B.Karabayeva*Prunus persica* var. *Nectarina* o'simligi mineral va aminokislota tarkibi 109

BIOLOGIYA

Sh.Q.Yuldasheva, A.Z.Rasuljonov

Vespidae oilasi vakillarini tutish va ularga tuzoqlar qo'yishning ayrim usullari 114

G.M.Zokirova, Sh.B.Yo'ldashev

Markaziy Farg'ona hududida qayd etilgan gerpetofauna (Reptilia)ning Chelonia va Serpentes turkumi sistematikasi, morfologiyasi va tarqalish areali 119

I.B.Isaqov, A.K.Xusanov, K.Zokirov, O.T.Sobirov, N.D.Ibroximova

Farg'ona vodiysida tarqalgan unsimon qurtlarning (Homoptera: Coccinea, Pseudococcidae) zoogeografiyasiga oid ma'lumotlar 128

M.A.Mamasolieva, L.A.Gafurova, O.B.Sharipov

Sug'oriladigan o'tloqi alluvial tuproqlarni oksireduktaza fermentlar faolligiga kremniyli o'g'itlar ta'siri (Buxoro vohasi misolida) 135

Y.Qayumova, X.Komilova

Farg'ona viloyati ichki suv havzalarida invaziv turlarining tarqalishi 142

A.A.Ma'rupov

Farg'ona vodiysi uzunmo'ylov qo'ng'izlarining taksonomik reviziyasi va zamonaviy tur tarkibi 147

A.E.To'lqinov

Janubiy Farg'ona kanali algoflorasining 2023-yil yoz mavsumidagi sistematik tahlili 151

S.M.Xaydarov, J.G'.Raximov*(L.Minor)*ning biologik, morfologik xususiyatlari va turlar tarkibi, erigan kislorod darajasini aniqlash 155**G.M.Zokirova, Sh.B.Yo'ldashev**Yozyovon tabiat yodgorligida qayd etilgan tangachalilar turkumi (*Squamata*) vakillarining sistematikasi 158**M.A.Muqimov**Farg'ona vodiysi suv havzalarida tarqalgan oddiy qirraqorin balig'i (*Hemiculter Leucisculus*)ning morfoekologik xususiyatlari 164**M.M.Мирзахалилов**Некоторые морфобиологические показатели обыкновенной маринки (*Schizothorax eurystomus*) Шахриханся 171

GEOGRAFIYA

R.Y.Xoliqov

Landshaftlarni funktsional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar 175

P.I.Xalikov, I.Y.Zikirov

Роль климатических факторов в формировании горно-долинных парагенетических ландшафтов 179

O'.B.Badalov

Qashqadaryo viloyatini rekreatsiya-turistik resurslaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari 185

O.I.Abdug'aniyev, D.B.Kosimov

Madaniy landshaft: umumiy g'oyalar va tushunchalar tadqiq etishdagi yondashuvlar 190

H.A.Abduvaliyev

Aholi hududiy tashkil etilishini o'rganishning geografik yo'nalishlari 196

ILMIY AXBOROT

O.Q.Abdullayev

Jismoniy ta'limda o'quvchilarning ruhiyatini tarbiyalash va irodasini mustahkamlashning ahamiyati xususida 202

H.Arabboyev

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlashda tabaqalashtirilgan jismoniy ta'lim texnologiyasi va shart-sharoitlari 206

JISMONIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING RUHIYATINI TARBİYALASH VA IRODASINI MUSTAHKAMLASHNING AHAMIYATI XUSUSIDA

О ВАЖНОСТИ ВОСПИТАНИЯ ПСИХИКИ И УКРЕПЛЕНИЯ ВОЛИ УЧАЩИХСЯ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ

THE IMPORTANCE OF NURTURING THE MENTAL ATTITUDE AND STRENGTHENING THE WILL OF PUPILS IN PHYSICAL EDUCATION

Abdullayev Oybek Qurbonovich¹

¹Qo'qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarning jismoniy-ruhiy resurslarini uyg'un rivojlantirishda, ayniqsa, jismoniy tarbiya va sportning imkoniyatlaridan keng foydalanish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi, jismoniy tarbiya va sport o'quvchilarni nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga yetishishda ham muhim ahamiyat kasb etishi to'g'risidagi ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье изложены некоторые соображения, касающиеся гармоничного развития физико-психических ресурсов молодежи, особенно широкого использования возможностей физической культуры и спорта, определяемые как одно из основных направлений государственной политики, что физическая культура и спорт играют важную роль в достижении учащимися не только физического, но и духовного совершенства.

Abstract

This article outlines some considerations concerning the harmonious development of the physical and mental resources of young people, especially the wide use of the possibilities of physical culture and sport, defined as one of the main directions of state policy, that physical culture and sport play an important role in achieving by students not only physical but also spiritual perfection.

Kalit so'zlar: *islohotlar va o'zgarishlar davri, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, noan'anaviy ta'lim shakllari, jismoniy madaniyat, o'quvchi ruhiyati.*

Ключевые слова: *период реформ и перемен, концепция развития физического воспитания и массового спорта, передовые педагогические технологии, нетрадиционные формы обучения, физическая культура, студенческий менталитет.*

Key words: *the period of reforms and changes, the concept of physical education and mass sports development, advanced pedagogical technologies, non-traditional forms of education, physical culture, student mentality.*

KIRISH

Jismoniy tarbiya – pedagogik jarayon bo'lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo'lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan.

Oliy pedagogik jismoniy ta'limning bosh maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni sog'lomlashtirish, jismoniy sifatlarni o'stirish, aqliy va jismoniy mehnatga va Vatan himoyasiga tayyorlashdir. Zero, yoshlarning jismoniy kamoloti tarixiy taraqqiyotning barcha jabhalarida ulug'langan va qadrlangan. «Jismoniy madaniyat tushunchasi xalq madaniyatining bir qismi sifatida qaraladi. Jismoniy madaniyat kishilik jamiyati tomonidan to'plangan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi hisoblanib, undan kishilarning kamoloti uchun foydalanishni anglatadi»[3:417]. Shunday ekan, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida barcha sohalardagi islohotlar kabi jismoniy tarbiya sohasida ham islohotlarni olib borish orqali aholi orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ijtimoiy taraqqiyotni yaratish vazifalari o'rtaga tashlangan.

Yoshlarning jismoniy-ruhiy resurslarini uyg'un rivojlantirishda, ayniqsa, jismoniy tarbiya va sportning imkoniyatlaridan keng foydalanish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi bejiz emas. Chunki jismoniy tarbiya va sport mazkur resurslarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashning zarur omilidir. Jismoniy tarbiya va sport nafaqat jismoniy, balki ma'naviy kamolotga yetishishda ham muhim omildir. U irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishga o'rgatadi. Inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra, «jismoniy tarbiya va sportni faol rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzining foydasi va ustunligini keng targ'ib qilish, mamlakatda yaratilgan jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to'laqonli va samarali foydalanishni ta'minlash» asosiy maqsad sifatida ko'rsatilgan[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish va unga yangicha yondashuvlarni olib kirish zarurati bo'yicha mamlakatimizda ko'plab olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Ayniqsa, pedagog-psixolog olimlar bu masalada yetakchilik qilmoqdalar. Biroq, olimlarimiz talaba-yoshlar ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarning pedagogik-psixik xususiyatlarini yoritib, bir vaqtning o'zida uning kelib chiqish sabablarini tahlil etib bormoqdalar. Ammo, shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar jismoniy tarbiya o'qituvchilarida o'quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga doir bilimlarini takomillashtirish, ko'nikmalarni shakllantirishga doir tadqiqotlar olib borilmagan. Bizning nazarimizda talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyasida ruhiy beqarorlikni kelib chiqishi, o'ziga ishonmaslikni kelib chiqish sabablari va ko'rinishlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud. Negaki, ta'limda, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida noto'g'ri tashkil etilgan tarbiya jarayoni yoki boshqa holatlar ularning irodasiga, o'ziga ishonch hissiga ta'sir ko'rsatadi. Bu borada, psixolog olim B.Umarov izlanishlariga murojaat qiladigan bo'lsak, olim shaxs xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarning asosiy sababi sifatida quyidagi fikrini aytib o'tadi: "Shaxs xulq-atvoridagi buzilish ijtimoiy muhitning o'ziga xos jihatlari, ya'ni sog'lom va nosog'lomligiga, individning fe'l-atvori, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy meyorlar va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlar hamda ularning zo'rayib borishi kabilarga bog'liq bo'ladi"[6:76]. Ushbu fikrga e'tibor qaratadigan bo'lsak, darhaqiqat dastlab inson ruhiyatidagi o'zgarishlar uni o'rab turgan muhitning qay darajada ekanligi, talabaning xulq-atvori, xakteri, oilaviy tarbiyani qay darajada tashkil etilganligi va boshqa holatlar bilan ham bog'liq hodisa sanaladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sport bilan shug'ullanish faqat organizmda muhim biologik o'zgarishlar paydo qilibgina qolmay, balki shaxsning kishi ma'naviy dunyosini xarakterlovchi dunyoqarashlarini, axloqiy e'tiqodlarini, xarakter xislatlarini, odatlarini, didi hamda boshqa xislatlarini ham ma'lum darajada belgilaydi va qayta quradi.

Tarbiya jarayonida talaba ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiya vazifalarini hal etishda jismoniy tarbiya vositalarining amaliy ta'siri kattadir. Biroq jismoniy mashqlar bilan, shu jumladan sport bilan ham shug'ullanish o'z-o'zicha shaxsning istalgan fazilatlarini tarbiyalamaydi. Bunda o'qituvchi yoki trener faqat pedagogik ta'lim tarbiya vazifalarini o'z o'rnida to'g'ri olib borgandagina shug'ullanuvchilarning ma'naviy qiyofasini, ular xarakterining yaxshi xislatlarini shakllantirish vositasiga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali talabalarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat talabalar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda talabaning tengdoshlari va o'zini o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Talaba o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi. Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbaini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir.

Demak talabalarning jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan doimiy ravishda shug'ullantirish natijasida ularning jismi ham, ruhi ham tetik bo'ladi, uning butun vujudi uyg'un tarzda kamol topadi. Uning o'y-xayoli faqat o'z iste'dodini namoyon etish, turli musobaqalarda g'alaba qozonish ishq bilan band bo'ladi.

Umumiy pedagogika jarayonida tarbiya muhim o'rin tutadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi.

Inson jismoniy va ma'naviy kamolotining yagonaligi tufayli jismoniy tarbiya jarayonida aqliy, axloqiy va estetik tarbiya vazifalarini hal etish uchun juda katta imkoniyatlar bor. Bu vazifalarni hal

etish shaxsni har tarafkama kamol toptirish omili sifatida jismoniy tarbiyaning rolini kengaytiribgina qolmaydi, balki bevosita jismoniy tarbiyaning o'z muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimi, jumladan jismoniy tarbiya pedagogik jarayon sifatida milliy mintaletimizga mos yo'nalishda olib borilayotganligi yuksak axloqiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan. To'g'ri tashkil qilingan sport mashg'ulotlari jarayonida uyushqoqlik, ongli intizom, tashabbuskorlik topqirlik kabi axloqiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalanadi.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida jismoniy-kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish asosida o'quvchilarda jismoniy ta'limga doir bilimlarini oshirish, ularda milliy g'urur, insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik, fuqarolik burchini his etishdek zarur fazilatlar tarbiyalash maqsad qilinadi. Mashqlarni bajarishdagi o'zaro yordam va o'yinda bir-qo'llash, berilgan topshiriqlarni birgalikda bajarish, o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik, birodarlik hissini rivojlantiradi[4:352]. Jismoniy tarbiya shakllantiruvchi jamoaviylik, birdamlik hissi talabalarning kasbiy faoliyatida ham asqotadi.

Umuman olganda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish tizimi doimiy tarzda isloh qilinishga, takomillashishga ehtiyoj sezadi. Shu sababli, mazkur masala yuzasidan muntazam tadqiqotlar o'tkazish, mutaxassislar va olimlarni ilmiy izlanishlarga yo'naltirish hamda olingan natijalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ruhiyatni tarbiyalash, xulq-atvorni shakllantirish masalasiga kishilik jamiyatining barcha davrlarida e'tibor bilan qarab kelingan. Negaki, kishilarning ruhityai, xulq-atvori, yurish turishi, saviyasi, muomalasi jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy ta'limni rivojlantirish asosida o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini oshirish bilan birga ularning ruhiyatini ham barqarorlashtirish, ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi ta'lim metodikasini yaratish yuksak ma'naviy va axloqiy salohiyatga ega bo'lgan, yuqori malakali va jismonan yetuk, kuchli irodali o'quvchilarni tayyorlash masalalari doirasida xorijiy tajriba, rivojlangan davlatlar amaliyoti o'rganilmoqda. O'rganilgan tadqiq va tahlillarga ko'ra aqliy va jismoniy yetuk mutaxassislar tayyorlaydigan ta'lim muassasalarining o'quv tarbiya jarayonini davr talablari asosida tashkil etish, ta'lim-tarbiya ishlarini samaradorligini oshirish uchun uning yo'nalishlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirish talab etiladi. Zero, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot, oldimizga qo'yayotgan bir – biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimini aynan ta'lim – tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz»[1:37]. Darhaqiqat, ijtimoiy muammolarning barchasi ta'lim-tarbiya, jamiyatning ilmiy salohiyati va dunyoqarashining yuksak emasligi bilan o'lchanadi.

XULOSA

Bugungi kunga qadar jismoniy ta'limda o'quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish muammosi yaxlit pedagogik tadqiqot ishi sifatida o'rganilgan emas. Demak, ushbu muammoni tadqiq etish va uning yechimini topish bizningcha hayotiy zaruriyatdir. Negaki, keyingi yillarda maktab o'quvchilari ruhiyati, xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlar nafaqat ota-onalarni, balki, psixolog va pedagoglarni tashvishga solmoqda. Shu boisdan dastlab o'quvchilar ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va o'rganish lozim bo'ladi. Ushbu muammoni o'rganish va asosli yechimini topishda oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, pedagog-psixologlar birgalikda shug'ullanishlari, bahamjihatlik bilan ish ko'rishlari darkor. Zero, o'quvchilar ruhiyatidagi salbiy o'zgarishlar turli sabablarga ko'ra sodir bo'ladi. Masalan, o'quvchilardagi tajanglik, injiqlik, tajavvuzkorlik ularning jismoniy salomatligidagi muammolar tufayli sodir bo'lsa, ulardagi egoistiklik, chaqimchilik, erkalik, dangasalik esa kattalar tomonidan tarbiya jarayonini noto'g'ri tashkil etilganligidan darak beradi.

Bugungi jadal islohotlar va o'zgarishlar davrida innovatsion yechimlarning asosi ma'rifat, ta'lim-tarbiya va sog'lom tafakkurga bog'liq ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiyani zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni zaruratga aylantirmoqda. Zero, «ilg'or pedagogik texnologiyalar ijtimoiy-tarixiy zaruriyat va ma'naviy-pedagogik hodisa sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ma'rifiy hayotga kirib keldi va yoshlarni ilm-fan taraqqiyoti muammolari

bilan tanishtiruvchi pedagogik mexanizm sifatida o'qish-o'qitish ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Ma'lumki, jismoniy madaniyat mashg'ulotlari jismoniy tarbiya ta'lim muassasalari uchun tashkillashtirilgan pedagogik jarayonda an'anaviy va noan'anaviy ta'lim shakllari asosida olib borilmoqda»[5:1861]. Shunday ekan, ta'lim-tarbiyani zamon talablari darajasida va bugungi ehtiyojlardan kelib chiqib, xorij tajribasi asosida tashkillanadi va bu muayyan qonuniyatlarga asoslanadi.

Xulosa qilganda, o'quvchilarni ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga doir bilim va ko'nikmalarni bo'lajak kadrlarda rivojlantirish orqali millatning ruhiy holatini barqarorlashtirish, ta'lim sifatiga erishish, o'quvchilarning matonati, irodasi va ma'naviy kuchini ijtimoiy taraqqiyot uchun yo'naltirish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent.: O'zbekiston. 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2019—2023-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 118-son Qarori. 2019-yil 13-fevral.
3. Fadeeva O, Kozbayev Z, Serzhanuly B, Zhunisbayeva M. The significance of personal qualities of student's formation within the physical education. *Procedia – Social and Behavioral Sciences* 136 (2014) – pp. 416-420.
4. Ivankov Ch. T. Theoretical basis of methods of physical education. Moscow: Insan, 2000.
5. Prontenko K., Bloschynskyi I., Griban G., Zhukovskyi Y., Yavorska T., Tkachenko P., Dzenzeliuk D., Dovgan N. Formation of Readiness of Future Physical Culture Teachers for Professional Activity. *Universal Journal of Educational Research* 7(9): 2019. – pp. 1860-1868. <http://www.hrpub.org>
6. Umarov B. Bolalar tarbiyasi buzilishi va uning oldini olish yuzasidan ota-onalarga maslahatlar /Uslubiy qo'llanma/. – Toshkent, 2012.